

BOSH SHARTLAR



O'zR MBning 2022-yil 17-martdagi 86-son litsenziyasi

Bankning bog'lanish uchun ma'lumotlari:
Manzil: 100015, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent sh., Fidokor ko'ch, 10B
Telefon: +998787772727
e-mail: contact@tbcbank.uz

1 UMUMIY SHARTLAR

KIRISH

Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh Shartlar ("BSh") "TBC Bank" aksiyadorlik tijorat bankining ("Bank") O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun rasmiy taklifi ("Oferta") hisoblanadi.

Bank xizmatlari haqida batafsil —> www.tbcbank.uz

BANK MIJOZI BO'LISH UCHUN ARIZA TOPSHIRISH, SHARTNOMALARNI O'QISH VA QABUL QILISH HAMDA SHAXSNI TASDIQLOVCHI HUJJATLARNI TAQDIM ETISH KERAK.

IDENTIFIKATSIYA

Qonunchilik talablariga muvofiq shaxsni tasdiqlash hamkorligimizning muhim shartidir.

Identifikatsiya pasportning asl nusxasi yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat bo'yicha amalga oshiriladi. Masofaviy (raqamli) identifikatsiya hujjatni skanerlash va telefonning videokamerasida yuzni videoga olish orqali amalga oshiriladi.

Qayta identifikatsiya ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha tug'ilganda amalga oshiriladi. Buning uchun Bank xodimi Mijozni shaxsan o'zi fotosuratga oladi va mijoz bunga o'z roziligini bildiradi.

Identifikatsiyani amalga oshirish maqsadida Call-markaz aniq savollar berish va boshqa zarur ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega.

Shaxsni tasdiqlash uchun Bank qonun hujjatlariga muvofiq har qanday tasdiqlash vositalarini (elektron raqamli imzo, jismoniy imzo, ma'lumotlarni taqdim etish va h.k.) talab qilishi, shuningdek, barcha suhbatlarni yozib olishi va qayd etishi mumkin. Mijozni identifikatsiya qilish muvaffaqiyatli o'tmagan bo'lsa, Bank xizmatlarni ko'rsatishdan bosh tortish huquqiga ega.


SHARTNOMALAR TUZISH

Shartnomalarni diqqat bilan o'qing va ma'lumotlaringiz to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qiling. Agar ma'lumotlarda xatoliklar aniqlansa yoki siz yoxud siz bilan bog'liq shaxslar sanksiyalar ostida ekanligi ma'lum bo'lsa, Bank xizmatlarni taqdim etishdan bosh tortishi mumkin. Tekshirish muvaffaqiyatli o'tgandan keyin va shartnomalar tuzilgandan so'ng, Bank o'z xizmatlarini ko'rsatishni boshlaydi.

MULOQOTLAR O'RNATISH

Bankning siz bilan muloqoti og'zaki, yozma, elektron shaklda o'zbek, rus va siz uchun qulay bo'lgan boshqa tillarda amalga oshirilishi mumkin. Mijozlarga xizmat ko'rsatish Bank ofislarida va masofaviy formatda amalga oshirilishi mumkin. Bank ofislari dam olish va bayram kunlaridan tashqari butun operatsion kun davomida xizmat ko'rsatish uchun ochiq. Mobil ilova va Call-markaz orqali xizmat 24/7 davomida ishlaydi. Rejalashtirilgan/rejadan tashqari texnik ishlar va operatsion kunning yopilishi bundan mustasnodir. Sizning murojaatlaringiz va xabarlaringiz Bankka kuryerlik xizmati, elektron pochta va telefon orqali, shuningdek, og'zaki va elektron murojaatlar Call-markaz orqali yuborilishi mumkin. Shu bilan birga, siz Call-markaz orqali sizning barcha murojaatlaringiz imzoingiz bilan tuzilgan shartnomalar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligiga rozilik bildirasiz. Bank, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq barcha axborot xabarlarini taqdim etishi mumkin. Siz bog'lanish uchun ma'lumotlaringiz o'zgartirilishi to'g'risida ular o'zgartirilgan kundan so'ng 3 kun ichida Bankni xabardor qilishingiz shart.

Qanday qilib bank mijoziga aylanish mumkin?



Bankning mobil ilovasini App Store yoki Play Market orqali yuklab oling



Ilovada ro'yxatdan o'ting



Shaxsingizni tasdiqlash uchun pasport va boshqa ma'lumotlarni taqdim eting



Bosh Shartlar bilan tanishib chiqing va ularni qabul qiling



Tabriklaymiz! Siz Bank mijoziga aylandingiz



Mahsulotlarga ariza berib, Bankning barcha xizmatlaridan foydalaning

1 | UMUMIY SHARTLAR

MAS'ULIYAT VA NIZOLAR

⚠️ Qat'iyon o'z telefoningizni hech kimga bermasligingizni so'raymiz!

Qurilma yo'qolganligi haqida xabar berishdan oldin amalga oshirilgan har qanday operatsiyalar va kiritilgan SMS-kodlar sizning javobgarligingiz ostidadir. Agar Siz mamlakat tashqarisida bo'lsangiz va sizning telefon raqamingizdan boshqa shaxs foydalanayotgan bo'lsa, Siz Bankka shaxsan tashrif buyurmagingizcha Bank xizmat ko'rsatishni to'xtatadi. Shartnomalar bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarinigizni Bankning roziligisiz boshqa shaxslarga bermang. Qonunbuzarliklar aniqlangan taqdirda, Bank bir tomonlama tartibda hamkorlikni to'xtatishi mumkin. Shartnomani imzolash orqali Siz Bankda ochilgan yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa banklarida ochilgan hisobvarag'ingiz yoki boshqa hisobvarag'laringiz bilan ishlashda ulardan bevosita mablag'larni debetlash va akseptsiz tartibda yechib olish yoki avtomat ravishda yechib olish yo'li bilan xizmatlar uchun haq to'lashga rozilik bildirasiz. Bank tariflarni, BShni va bank mahsulotlari shartlarini ular kuchga kirishidan 10 kun oldin xabardor qilgan holda o'zgartirishi mumkin. Majburiyatlarni qisman va to'liq bajarmaganlik uchun shartlarni buzgan tomon qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi. Barcha nizolar muzokaralar orqali, shuningdek, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, Bankning yuridik manzili bo'yicha sud tartibida hal qilinadi.

FORS-MAJOR HOLATLARI

Fors-majior holatlari (yengib bo'lmay kuch holatlari) yuzaga kelganda, tomonlar ushbu BSh bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-majior holatlari davom etadigan muddatgacha uzaytiriladi.

2 | HISOBVARAQLARNI OCHISH

BANK QUIYIDAGI HUQUQLARGA EGA:

- xatolik bilan kelib tushgan pul mablag'larini mustaqil ravishda hisobdan chiqarish;
- operatsiyalarni identifikatsiyalash va qonuniyligini aniqlash uchun ma'lumot va hujjatlarni talab qilish;
- hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish;
- 2020 - "jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha depoziti" harakatsiz hisobvaraqlar ochish, agar siz 3 yil davomida hech qanday operatsiyalarni amalga oshirmasangiz.

SIZNING HUQUQLARINGIZ

- pul mablag'lari haqida ma'lumot olish;
- ularni mustaqil ravishda tasarruf etish;
- Bank oldidagi qarzni to'lab hisobvarag'ni yopish va shartnomani bekor qilish.

Bankning operatsion kuni har doim ham bir vaqtda yopilmaydi.

Xavfsizlikni ta'minlash, mulkiy va maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish, xizmatlar sifatini nazorat qilish maqsadida Bank binolari, bankomatlar video va audio kuzatuv ostida bo'lib, Bank bilan telefon orqali muloqot qilishda audioduzovlar olib boriladi.

Tomonlar maxfiy ma'lumotlarni, Tomonlar uchun ma'lum bo'lgan va hamma uchun ochiq bo'lmagan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

BOSH SHARTLARNING BARCHA ATAMALARI, TA'RIFLARI VA TO'LIQ TAHRIRI WWW.TBCBANK.UZ SAYTIDA MAVJUD.



BShni qabul qilganingizdan so'ng, siz hisobvaraqlar ochish uchun ariza topshirishingiz mumkin.



Ariza qabul qilingandan so'ng Bank sizga milliy yoki chet el valyutasida hisobvaraqlar ochadi.



Bundan so'ng siz hisobvaraqlaringizni erkin boshqarishingiz mumkin.


BANKNING MAJBURIYATLARI

- Sizing hisobingizga kelib tushayotgan mablag'larni qabul qilish va kreditlash;
- Bank sirini saqlagan holda Sizing pul mablag'laringizni saqlanishi va daxlsizligini ta'minlash;
- ko'rsatmalarigizga ko'ra boshqa operatsiyalarni amalga oshirish va bajarish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish.

SIZNING MAJBURIYATLARINGIZ

- ishonchli ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;
- shartnoma bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar va raqamlarning o'zgariganligi to'g'risida uch kun muddatda ogohlantirish;
- www.tbcbank.uz veb-saytida joylashtirilgan Tariflar bo'yicha komissiya to'lash;
- xatolik bilan kelib tushgan pul mablag'lari to'g'risida darhol Bankni xabardor qilish;
- barcha operatsiyalarni qonunchilikka muvofiq amalga oshirish.

3 BANK KARTALARI



KARTA EGASINING HUQUQLARI

- tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- pul mablag'larini kartadan kartaga o'tkazish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish;
- o'z hisobvarag'ining balansini to'ldirish;
- hisobvarag'dan ko'chirma va boshqa ma'lumotnomalarni olish;
- PIN kodlarni o'zgartirish;
- hisobvarag'ni keyinchalik yopish va qoldiqni qaytarish bilan bank kartadan voz kechish;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa har qanday turdagi to'lovlar, o'tkazmalar va operatsiyalarni amalga oshirish;
- Gruziya hududida, "TBC Bank" AJ (Gruziya) tarmog'ida, Bank kursi bo'yicha mahalliy valyutadan o'zbek so'miga konvertatsiya qilish orqali naqd pul mablag'lari bilan to'lovlarni amalga oshirish va ularni yechib olish. Muzlatish va pulni yechib olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

KARTA EGASINING MAJBURIYATLARI

- Bank bilan tuzilgan shartnomaga, to'lov tizimlari qoidalariga va qonun hujjatlariga muvofiq Kartadan foydalanish;
- Kartaga ziyon yetganda, o'g'irlanganda, pasport ma'lumotlari, telefon raqami o'zgariganda va boshqa kutilmagan holatlar yuzaga kelganda, Bankni istalgan usulda Kartani bloklash va yangisini chiqarish to'g'risida xabardor qilish;
- ilgari yo'qolgan Karta topilgan taqdirda, uni Bankka qaytarish;
- Shartnoma bekor qilingan taqdirda, 30 kun oldin xabardor qilish va Kartani ishga yaroqli holatda qaytarish.

HISOBVARAQ OCHISH UCHUN ARIZA BERISH BILAN SIZ SHAXSIY MA'LUMOTLARINGIZNI QAYTA ISHLASHGA O'Z ROZILIGINGIZNI BERASIZ VA BU JARAYONDA:

Mijoz shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi. Axborot to'plash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga doirasida istalgan usulda amalga oshirilishi mumkin:

- Mijoz bilan tuzilgan shartnomalar bilan tanishish, tekshirish, saqlash, topshirish va bajarish (O'zbekiston Respublikasi hududida va uning hududidan tashqarida);
- mijozning qonun hujjatlarini va Bank bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarini bajarishi va ta'minlanishi;
- tadqiqot ishlarini olib borish;
- yangi xizmatlar haqida ma'lumot berish va boshqalar.

Kartani chiqargandan so'ng, Bank qonun hujjatlariga muvofiq shartnomalar amal qilish muddati davomida sizga xizmat ko'rsatadi;

Agar karta yo'qolgan yoki unga zarar yetkazilgan bo'lsa, pasport ma'lumotlari o'zgarigan yoki boshqa kutilmagan holatlar yuzaga kelsa, Bank sizning arizangiz asosida yangi kartani chiqarishi mumkin (batafsil www.tbcbank.uz veb-saytida).

Kartalar sizning shaxsiy so'rovingizga ko'ra yoki Bank shartnomalari, to'lov tizimlari qoidalarini va qonunchilik normalari Bank yoki vakolatli davlat organi tomonidan buzilgan taqdirda bloklanishi mumkin.



BSHni qabul qilganingizdan so'ng, Siz mobil ilova orqali karta olich uchun ariza berishingiz mumkin.



Ariza ko'rib chiqilganidan so'ng, biz kartani chiqaramiz va uni kuryer orqali yetkazib beramiz yoki Siz tomoningizdan olib ketilishi uchun bank xizmatlarini ko'rsatish shahobchasida qoldiramiz.



Karta 3-5 kun ichida (viloyatlarda - 7-10 kun davomida) tayyor bo'ladi.

4 KREDIT MAHSULOTLARI

KREDIT TASDIQLANGANIDAN SO'NG, BANK QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:

- istalgan vaqtda qonun hujjatlariga muvofiq barcha hisobvarag'laringizdan summalarni hisobdan chiqarish;
- kredit bo'yicha huquqlarni uchinchi shaxsga topshirish;
- Sizning majburiyatlaringiz bajarilishini ta'minlash uchun uchinchi shaxslar bilan muzokaralar olib borish;
- shartnoma bo'yicha majburiyatlar buzilgan, bajarilmagan, Mijoz vafot etgan yoki daraksiz yo'qolgan va hokazo hollarda qarzdorlikni muddatidan oldin to'lashni Sizdan yoki huquqiy vorisdan talab qilish.

SHARTNOMA SHARTLARINI TAKOMILLASHTIRISH MAQSADIDA BANK SIZGA QUYIDAGILARNI TAKLIF QILISHI MUMKIN:

- qarzdorlikni to'lash uchun to'lovni amalga oshirilishini kechiktirish;
- komissiya stavkalari, foizlar hajmini kamaytirish;
- kredit limiti hajmini oshirish;
- imtiyozli davrni taqdim etish;
- yangi yoki qo'shimcha kredit limitini taqdim etish;

5 YAKUNIY SHARTLAR

TOMONLARNING QO'SHIMCHA HUQUQ VA MAJBURATLARI

Arizani imzolash yoki Bank xizmatlaridan foydalanish orqali Mijoz quyidagilarga rozilik beradi va kafolatlaydi:

- ishga layoqatli va hujjatlarni imzolashi, Shartnomalar va BShni bajarishi uchun huquqiy qobiliyatga egaligi;
- barcha taqdim etilgan ma'lumotlar ishonchli, hujjatlar to'liq va dolzarb taqdim etilganligi;
- hech qanday noqonuniy faoliyatda ishtirok etmasligi hamda Bank xizmatlaridan qonun hujjatlarida taqiqlangan maqsadlarda foydalanmasligi;
- shaxsiy ma'lumotlarning o'zgarishi, hisoblarni boshqarishi mumkin bo'lgan shaxslarning o'zgarishi haqida o'z vaqtida xabardor qilishi;
- xizmatlar (komissiyalar) uchun to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash, shuningdek, Bank boshqa bankda ochilgan hisobvarag'lardan qo'shimcha roziliksiz pul mablag'larini yechib olish huquqiga egaligi;
- korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi, korrupsiya, soliqqa oid firibgarlik, har qanday shaklda soliq to'lashdan bo'yin tovlashga ko'maklashish va boshqa har qanday turdagi jinoyatlarni qabul qilmaslik;
- shartnoma majburiyatlari, ariza va kafolatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar haqida xabar beradi;
- Bankdan reklama xabarlarini olishga rozilik beradi;
- Bank yoki uchinchi shaxs tomonidan majburlash, aldov, tahdid qilish yo'llari bilan Bank bilan shartnoma tuzmaydi.

Bankning har bir verifikatsiyadan o'tgan mijozi kredit olish uchun murojaat qilishi mumkin.

Tafsilotlar www.tbcbank.uz
veb-saytida.



Kredit olish uchun Siz ariza berishingiz kerak.




Arizaga SMS-xabar berish xizmatiga ulangan bir yoki bir nechta bank kartalarini biriktirib, pul mablag'larini avtomatik yechib olishga ruxsat berish kerak.



Kreditga Mijoz layoqatliligini ko'rib chiqib baholaganidan so'ng, Bank olish mumkin bo'lgan kredit miqdorini ko'rsatgan holda arizani ma'qullaydi yoki rad etish haqida xabardor qiladi.



Kreditga Mijoz layoqatliligini baholashda Bank har qanday shaxsiy ma'lumotlarni so'rash va olish huquqiga ega.



TOMONLARNING QO'SHIMCHA HUQUQ VA MAJBURATLARI

Mijoz majburiyatlari:

- BSh, shartnomalarga rioya qilish;
- zarur hujjatlar, arizalar, kafolatlar va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;
- ma'lumotlarning o'zgarishi, chet elga chiqish vaqti to'g'risida zudlik bilan xabardor qilish;
- Bank xizmatlar to'lovini o'z vaqtida to'lash;
- Agar pul mablag'larini avtomatik yechib olishni ta'minlaydigan mahsulotlarga ega bo'lganda va ulardan foydalanganda, ushbu xizmatdan foydalanib, unga ulanishdan bosh tortmaslik;
- pul mablag'lari xatolik bilan kelib tushganda ushbu mablag'larni sarflamaslik va bu haqda darhol Bankka xabar berish;
- elektron pochta orqali Bankka amaldor shaxs maqomi haqida contact@tbcbank.uz elektron pochta manzili orqali xabar berish;
- mustaqil ravishda telefonning axborot xavfsizligini ta'minlash va telefonning operatsion tizimini so'nggi versiyasiga yangilash.

Mijozning huquqlari:

- www.tbcbank.uz veb-saytida bank xizmatlarini ko'rsatish shartlari bilan tanishish;
- shartnoma tuzilgandan keyin kartalarga pul tushguniga qadar kredit mahsulotlarini olishdan bosh tortish;
- jarimalarsiz mahsulot bo'yicha qarzdorliklarni muddatidan oldin to'lash;
- istalgan vaqtda barcha komissiya to'lovlarni va boshqa qarzdorliklarni to'lagan holda Bank xizmatlaridan voz kechish;

Bank, o'z navbatida, quyidagilarni ta'minlaydi:

- so'rovga ko'ra Mijoz hisobining holati to'g'risida ma'lumot beradi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Mijozning BSh, shartnomalar bo'yicha ko'rsatmalarini bajaradi.
- Bank yoki boshqa banklardagi hisobvaraqqa xatolik bilan kelib tushgan pul mablag'larini uning qo'shimcha roziliksiz hisobdan chiqaradi;
- ichki nazorat qoidalariga muvofiq tekshiruv o'tkazadi;
- barcha istisno holatlarda har qanday Hisobni ogohlantirmasdan yopadi yoki muzlatib qo'yadi.
- xatolar yoki qonun buzilishining boshqa holatlari aniqlanganda operatsiyalarni to'xtatib turadi.
- mobil qurilmalarning eskirgan operatsion tizimlarida mobil ilovadan foydalanishni to'xtatib qo'yishi mumkin.



Bayonotlar, kafolatlar va majburiyatlarning har qanday buzilishi Bank tomonidan shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish uchun asos hisoblanadi.



Mijozga har qanday bank mahsulotidan noqonuniy maqsadlarda foydalanish, shu jumladan qonun bilan taqiqlangan tovarlar va xizmatlarni sotib olish taqiqlanadi.

